

## ONA TILI DASRLARIDA JADID ADABIYOTI ORQALI MILLIY QADRIYATLARNI O'RGATISH

**Ro'zimurodova Sitora Maqsiddin qizi**

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*  
*magistranti sitoraruzimurodova050@gmail.com +998945311140*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ona tili darslarida jadid adabiyoti namunalari orqali o'quvchilarga milliy qadriyatlarni singdirishning didaktik imkoniyatlari yoritilgan. Jadid adiblarining asarlari yosh avlodda vatanparvarlik, ilm-ma'rifatga intilish, erk va ozodlik g'oyalarini shakllantirishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi ilmiy asosda tahlil etilgan. Shuningdek, dars jarayonida jadid adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan zamonaviy pedagogik metodlar, tahliliy yondashuvlar va interaktiv mashg'ulotlar tavsiya etilgan. Maqola umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari uchun ona tili ta'limini boyitish, ma'naviy-axloqiy tarbiyani kuchaytirish borasida metodik yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ona tili, jadid adabiyoti, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, jadidlar, pedagogik metodlar, ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, dars jarayoni, zamonaviy ta'lim.

### KIRISH

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayniqsa, ona tili darslari nafaqat til kompetensiyalarini rivojlantirish, balki o'quvchilarda tarixiy xotira, milliy ong va ma'naviy qarashlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu borada jadid adabiyoti namunalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega.

Jadidlar – o'z davrining ilg'or mutafakkirlari sifatida xalqni uyg'otish, ilm-ma'rifat, taraqqiyot va ozodlik g'oyalarini ilgari surgan, o'z asarlari orqali yosh avlodni yuksak insoniy qadriyatlarga yo'naltirgan adiblardir. Ularning asarlari orqali o'quvchilarga Vatanga muhabbat, inson erki, adolat, mehnat, o'zlikni anglash kabi muhim qadriyatlar singdiriladi.

Jadidchilik harakati XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida musulmon Sharqida, xususan, Turkiston hududida yuzaga kelgan ijtimoiy-ma'rifiy uyg'onishning yorqin ifodasidir. Bu harakat vakillari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Ismoil G'aspirali, Abdulla Avloniy, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Cho'lpon kabi ziyolilar o'z asarlari orqali xalqni jaholatdan ma'rifat sari yetaklashga intildilar. Ularning maqsadi o'z xalqini zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, mustaqil fikrlovchi avlodni voyaga yetkazish edi.

Jadid adabiyotining o'ziga xos xususiyati shundaki, u oddiy badiiy tasvir emas, balki ijtimoiy hayot muammolarini ko'taruvchi, xalqni uyg'otuvchi, zamonaviy tafakkurni shakllantiruvchi kuchli mafkuraviy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bu jihatlar hozirgi ona tili darslarida o'quvchilarga milliy g'urur, vatanparvarlik, axloqiy yetuklik kabi fazilatlarni singdirishda ayni muddao hisoblanadi.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida dars berayotgan o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarni ona tilining boyligi, adabiy merosning bebaho namunalaridan bahramand etish barobarida, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashdir. Jadid adabiyoti bu yo'lda kuchli ma'naviy tayanch bo'la oladi. Ayniqsa, jadidlarning badiiy-publitsistik merosi, ma'rifatparvarlik ruhi, erkinlik va taraqqiyotga chaqiriqlari yoshlar ongida o'zlikni anglash, milliy mafkura asoslarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu sababli, ushbu maqolada ona tili darslarida jadid adabiyoti namunalaridan foydalanish orqali milliy qadriyatlarni o'rgatishning didaktik ahamiyati, uslubiy yondashuvlari, metodik vositalari va o'quvchilarda shakllanadigan kompetensiyalar tizimli tarzda yoritiladi.

Ushbu maqolada ona tili darslarida jadid adabiyotini o'qitish orqali milliy qadriyatlarni qanday samarali o'rgatish mumkinligi, dars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan metodlar va yondashuvlar tahlil qilinadi.

Adabiyotlat tahlili va metodologiyasi. Ona tili darslarida milliy qadriyatlarni o'rgatishda foydalaniladigan adabiyotlar, avvalo, o'z mazmuni va g'oya-badiiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jadid adabiyoti namunalari ana shunday bebaho manbalardan hisoblanadi. Ularda ilgari surilgan asosiy g'oyalar – ma'rifatparvarlik, vatanparvarlik, erk va ozodlik, ayol huquqlari, ilm-fan, adolat va axloqiy poklik bugungi ta'lim-tarbiya jarayonida ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Millatparvar ziyolilarimizdan Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari — axloqiy tarbiya, odob, ilm, ota-ona hurmati, Vatanga sadoqat kabi qadriyatlarni yosh avlodga singdirishga xizmat qiladi. Ona tili darslarida bu asarni o'rganish orqali o'quvchilar matn tahlili, fikr bildirish, xulosa chiqarish, ijodiyligini rivojlantirishi mumkin. Ustoz olimalarimizdan biri Sanaqulova Zilola Abduxakimovnaning “Abdulla Avaloniyning “Birinci muallim”, va “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari ta'limiy va tarbiyaviy asardir” nomli maqolasida Avloniyning asarlari haqida shunday fikr keltiradi: “Ayniqsa uning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asar 1913-yilda yozilgan bo'lib, insonlarni “yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi” bir ilm- axloq haqida fikr yuritiladi. Muallif bu kitob boshlanishiga “Man xastayomu millatim o'lmish nega bemorq” degan retorik so'roq qo'ygan va asar davomida ushbu savolga javob berishga harakat qilgan. “Birincni muallim” asarida “qanoat”, “Yomonliq

jazosi”, “zar qadrini zargar bilar”, “yaxshilik erda qolmas”, “to’grilik”, “ittifoq” deb nomlangan xikoyalari bor..” [1: 3].

Yana bir jonkuyar jadidlarimizdan Munavvar qori Abdurashidxonovning maktab va ta’lim haqidagi maqolalari orqali o’quvchilarga zamonaviy ilm-fanning zarurati, o’z xalqiga xizmat qilish g’oyasi tushuntiriladi. 1906 yil 14 iyun kuni “Taraqqiy” gazetasida chiqargan maqolasida shunday jumlar bor: “Ko’p dindoshlarimizni ko’ramizki, o’z farzandlarini aslo maktabga bermay, dunyo-oxirat saodati o’lg’an ilm va maorifdan mahrum qilmoqdan hech hayo qilmaslar” [2; 4]

Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi – insonning ma’rifat va jaholat o’rtasidagi kurashi orqali tanlov qilish zaruratini, mustaqil fikrlash ahamiyatini targ’ib qiladi. Yosh izlanuvchi tadqiqotchimiz maqolasida “Fitratga qadar o'zbek adabiyotida bir necha dramatik asarlar yozilgan. Biroq jahon talabiga javob bera oladigan milliy ruh va milliy g'oya bilan sug'orilgan, teran qahramonlar aks etgan bu turdagi yetuk asarlarning muallifi sifatida Fitrat o'zbek dramaturgiyasining asoschisi hisoblanadi. Fitrat elni ozod va obod ko'rish dardi bilan yonib yashadi. Yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda ona tili va badiiy adabiyotga nisbatan muhabbatni shakllantirishda Abdurauf Fitratning asarlari katta ahamiyatga ega”,- degan fakrlarini ilgari suradi [3;113].

Cho’lponning “O’zbek yoshlariga” she’ri – millat, til va Vatanga bo’lgan muhabbatni ifoda etuvchi kuchli ruhiy manbadir. Bu asar orqali o’quvchilarda milliy g’urur va o’zlikni anglash shakllanadi.

Ona tili darslarida jadid adabiyoti namunalaridan foydalanishda quyidagi metodik yondashuvlar qo’llanilishi maqsadga muvofiq:

Tavsifiy-Integrativ o’qitish. Jadid asarlarini tilshunoslik, madaniyat, tarix fanlari bilan bog’lab o’rganish. Matn tahlil metodikasi. Asar tuzilmasi, asosiy g’oya, obrazlar orqali o’quvchilar tanqidiy fikrlashga undaladi. Diskussiya va debatlar. Jadidlar ilgari surgan ijtimoiy fikrlar (masalan, “ilmning roli”, “ayollar ta’limi”) yuzasidan sinfda munozaralar tashkil etish. Ijodiy yozuv ishlari. O’quvchilarni "Agar men jadid bo’lganimda..." yoki “Mening Vatan haqidagi fikrim” mavzularida insho yoki esse yozishga jalb etish. Multimedia qo’llanilishi. Jadid asarlari asosida tayyorlangan videorolik, audiokitob, sahna ko’rinishlari orqali ta’sirchanlikni oshirish kabi yondashuvlar ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Jadid adabiyotini metodik asosda o’qitish natijasida o’quvchilarda quyidagi ko’nikmalar shakllanadi:

- ☐ Tarixiy va badiiy matnni tahlil qilish
- ☐ Asardagi g’oya va qadriyatni anglash va baholash
- ☐ Milliy tafakkur va estetik didni rivojlantirish
- ☐ Fikrni aniq ifoda qilish va asoslash
- ☐ O’zlikni anglash va ma’naviy ongni mustahkamlash

Muhokama va natijalar. Ona tili darslarida jadid adabiyotidan foydalanish nafaqat til boyligini oshirish, balki o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qilishi amaliy tajriba va kuzatuvlar orqali tasdiqlandi. Jadid adiblarining asarlari – o'z zamonasida xalqni uyg'otish, yangicha tafakkur va erkinlik ruhini singdirishdek buyuk maqsadlarga xizmat qilgan, bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun esa o'rnak bo'la oladigan manbalardir.

Dars jarayonida jadid asarlari asosida olib borilgan matnli tahlillar, munozarali savollar, sahna ko'rinishlari, ijodiy yozuv mashqlari orqali o'quvchilar milliy qadriyatlar haqida nafaqat bilimga ega bo'ldilar, balki ularni his etib, ichki e'tiqod darajasida qabul qilishga intildilar. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash, o'z tiliga, tarixiga va madaniyatiga hurmat bilan qarash, tanqidiy va mustaqil fikrlash, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish kabi fazilatlarining yuzaga chiqishiga olib keldi.

Millatni savodli qilish, xalqni ma'rifatli qilish yo'lida jonkuydirgan ziyolilarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Abduqodir Shakuriy, Sadridin Ayniy, Shokirjon Rahimiy, Vahdud Mahmud, G'ozir Yunus, Shorasul Zunnun, Qayum Ramazon kabi ko'plab millatparlarimizni keltirishimiz mumkin.

Bu borada jadidlarimiz merosi, ilmiy faoliyati olimlarimizdan tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Jadidlarimizdan Abdulhamid Cho'lpon ijodiyoti orqali ta'lim oluvchilarga vatanga bo'lgan muhabbat, mehr- oqibatli bo'lish, xalqni ma'rifatli qilish kabi g'oyalarini singdirish mumkin. Tilshunos olimlarimiz filologiya fanlari doktori, professor Nurboy Jabborov va Islam Jemeney o'zining "Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi" maqolasida "Cho'lpon "Sadoi Farg'ona" gazetasining 1914 yil 6 iyun sonida bosilgan "Vatanimiz Turkistonda temiryo'llar" maqolasida mana bunday yozadi: "Ey qarindoshlar... katta iltimosimiz shuldurki, Ovro'poning mo'dosidin, shishasidan, buzuq axloqidan namuna olmasdan va bunlarga bul jihatdan taqlid qilmasdan, balki ilm, fan, hunar, sanoatga o'xshashlik madaniyatlaridan namuna olub, bul jihatdan taqlid qilmog'ingiz lozimdur. Ovro'poning mo'dosi, shishasi va buzuq axloqi sizlarni xonavayron, bevatan, asir, qul qiladur. Bundan saqlaningiz!" jumlasini keltirib o'tadi hamda yoshlarimizni milliy qadriyatlarimizni ardoqlashga chorlaydi [ 4; 9].

Shuningdek, yana bir jadidimiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'zbek jadidchilik harakatining atoqli namoyandalaridan biri sifatida o'z ijodi va ijtimoiy-ma'rifiy faoliyati orqali milliy uyg'onish g'oyalarini ilgari surdi. Uning asarlarida xalqni jaholatdan xalos qilish, zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, milliy madaniyat va qadriyatlarni asrab-avaylash g'oyalari ustuvor o'rin tutadi. Uning "Padarkush" asarida ota-onani e'zozlash, mehr-oqibat, ilmsizlikning fojiaiy oqibatlari ko'rsatiladi.

Bu orqali u qadimiy oilaviy qadriyatlarni himoya qiladi va yoshlarga ma'rifat nuri bilan yashashni targ'ib qiladi. O'zbek tilini asrash, rivojlantirish va adabiy merosni xalq orasida targ'ib qilish Behbudiyning ustuvor vazifalaridan biri bo'lgan. U tilni millat ruhi, uning jonli ifodasi deb bilgan. Tilshunos olimimiz, filologiya fanlari doktori, professor Nafas Shodmonovning "Behbudiylar publitsistikasining mavzuviy xarakteri" nomli maqolasida Behbudiylar haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Pedagogika, usuli jadidiya maktablari uchun muallimlar tayyorlash. Bugun zamonaviy o'zbek maorifi, pedagogikasining asoschisi kimligi haqida o'ylansa, buning javobi Mahmudxo'ja Behbudiylar deyilsa, adolatdan bo'ladi. Uning "Kitobatu-l-atfol", "Kitobi muntaxabi jug'rofiyalar umumiy kabi darsliklari o'z davri ta'limida qanchalik ahamiyat kasb etgan bo'lsa, "Padarkush" dramasi va maqolalari tarbiyaviy xarakteri bilan pedagogika fani shakllanishiga undan ham ko'proq xizmat qildi,- deya olamiz." Deb keltirib o'tadi [5:48].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ona tili darslarida jadid adabiyotidan foydalanish — o'quvchilarda milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, vatanparvarlik va ma'naviy tafakkurni shakllantirishning samarali vositasidir. Jadid adiblarning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi yosh avlod tarbiyasida ham dolzarb bo'lib, ularni ma'rifatga, ozodlikka, mustaqil fikrlashga, yurtga xizmat qilishga undaydi.

Shu bois, har bir ona tili o'qituvchisi o'z darslarida jadid adabiyoti namunalariga kengroq o'rin berishi, ularning g'oyaviy-estetik mohiyatini ochib berish orqali yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, ongli va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashi maqsadga muvofiqdir. Jadidlar merosi – bu nafaqat tarixiy xotira, balki bugunning ham pedagogik ehtiyoji, kelajakning ma'naviy negizidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sanaqulova Zilola Abduxakimovna. Abdulla Avaloniyning "Birinchil muallim", va "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari ta'limiy va tarbiyaviy asardir. Ilmiy ommaviy maqolalar. 27.03.2024.
2. Unga hech kim Toshkentda "sen" deb gapirgan emas» – Munavvar qori Abdurashidxonovning hayoti va faoliyatiga nazar. "KNAUF. Interyer+" tanlovi. 05.01.2024.
3. Saburova Umida Kuanishbay qizi. "Abulfayzxon" dramasi o'zbek adabiyotida tutgan o'rni. Innovative Academy RSC.
4. Nurboy Jabborov, Islam Jemeney. Turkiston matbuotida millat va milliyat masalalarining yoritilishi. Xalqaro ilmiy konferensiya. Qarshi-2023.
5. Nafas Shodmonov. Behbudiylar publitsistikasining mavzuviy xarakteri. . Xalqaro ilmiy konferensiya. Qarshi-2023.